XALQ DEPUTATLARI SO'X TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

2024 - yil 22 - fevral VI-83-21-11-159-K/24 So‘x tumani hokimligi

So‘x tuman mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25 dekabrdagi “2024-yil O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-886-son Qonuniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori, “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3042-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019-yil 6-7 may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi davomida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 19-sonli majlis bayonining 18-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi KQ-331-IV-sonli qaroriga asosan So‘x tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 4-va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari So‘x tuman Kengashi.

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari,

Prezidentning hududlarga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasining qaror va ko‘rsatmalari ijrosi tumanda bajarilishini inobatga olib, ushbu topshiriqlarni bajarilishi bilan bog‘liq xarajatlarning tuman budjeti hisobidan amalga oshirilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy byudjetining yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘i **396 077.9 ming.so‘m**ni tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda tuman mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yunaltirilgan mablag‘lar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlash taklifi ma’qullansin.

3. Xarajatlarni amalga oshirishga ma’sul tashkilotlar rahbarlariga:

-ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

-moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limiga taqdim etish;

-ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash;

-ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsinlar.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Iskandarov) budjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (U.Usmonov) to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish va ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiya raisi (N.Sadirbekov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Sayidmusaev**

Xalq deputatlari So‘x tuman
Kengashining
2024-yil 22-fevraldagi
VI-83-21-11-159-K/24-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari So‘x tuman
Kengashining 2024-yil ___-_____dagi
_____-son qaroriga
1-ilova

№	Tadbirlarning nomi	Ajratilgan mablag‘ (ming so‘mda)	Izoh
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son qarori Tashabbusli budjet jamg‘armasiga	118 824.0	Tuman Mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan
2.	So‘x tuman maxalliy byudjetining 2023-yil 3-chorak daromadlari rejasini oshirib bajarilgan qismi xisobidan "Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga yo‘naltirilmay qolgan qismi	44 600.0	Tuman Mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan
3.	O‘zbekiston Respublikasi “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi 2022 yil 29 iyundagi O‘RQ-781-sonli Qonuning 7-moddasiga asosan Farg‘ona viloyat Hokimligi huzurida tashkil etilgan Markazlashtirilgan jamg‘armaga	75 323.0	Tuman Mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan
4.	Tuman hokimligi xodimlarini rag‘batlantirish uchun.	103 862.0	Tuman Mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan
5.	Xalq deputatlari tuman kengash kotibiyati xodimlarini rag‘batlantirish uchun.	13 040.0	Tuman Mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan
6.	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi xodimlarini rag‘batlantirish uchun.	40 428.0	Tuman Mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan
Jami:		**396 077.0**	